



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

Yanvar-oktabr oylari 2020-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
116

Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali kelib tushgan murojaatlar
398



To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
456

Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi kelib tushgan og'zaki murojaatlar
117

Davlat statistika Qo'mitasiga 2020-yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 1087 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 116 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 398 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 456 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 117 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.



Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2020-yil yanvar-oktabr holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



468 tasi (jamiga nisbatan 43,1%) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



230 tasi (21,1 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



180 tasi (16,5 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



82 tasi (7,6 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan



81 (7,4 %) O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan



11 tasi (1,1 %) Qo'mita vakolatlari, faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan




34 tasi (3,2 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2020-yil yanvar-oktabr oylari holatiga

Jami: 1087



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 1087 ta murojaatlarning 945 tasiga chora ko'rildi, 134 tasi tushuntirildi, 8 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 40,6 % (442 ta) jismoniy shaxslar va 59,4 % (645 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2020-yil yanvar-oktabr holatiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2019- yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2020- yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13	26
Andijon viloyati	28	13
Buxoro viloyati	15	29
Jizzax viloyati	30	20
Qashqadaryo viloyati	25	21
Navoiy viloyati	12	25
Namangan viloyati	32	18
Samarqand viloyati	26	24
Sirdaryo viloyati	19	15
Surxondaryo viloyati	17	16
Toshkent viloyati	74	88
Farg'ona viloyati	44	28
Xorazm viloyati	20	14
Toshkent shahar	885	745
Boshqa hududlardan	2	5

Davlat statistika Qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 745 ta (o'tgan yilning shu davrida 885 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 26 ta, Toshkent viloyatidan 88 ta, Farg'ona viloyatidan 28 ta, Namangan viloyatidan 18 ta, Jizzax viloyatidan 20 ta, Samarqand viloyatidan 24 ta, Andijon viloyatidan 13 ta, Qashqadaryo viloyatidan 21 ta, Surxondaryo viloyatidan 16 ta, Xorazm viloyatidan 14 ta, Sirdaryo viloyatidan 15 ta, Navoiy viloyatidan 25 ta, Buxoro viloyatidan 29 ta va boshqa Respublikalardan 5 ta murojaatlar kelib tushgan.



Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat qiling:



"Ishonch telefon"lari: (71) 202-81-80



Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 202-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi: (71) 202-81-77

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

Pochta manzili: info@stat.uz